

OTALIK VA ONALIK ROLLARI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Guliston davlat universiteti
Psixologiya yo’nalishi magistranti
Konratbayeva Gulnaz Bazarbay qizi
gulnozkonratbayeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19409637>

Annotatsiya. Mazkur maqolada otalik va onalik rollarining shakllanish jarayoni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda ota-onalik identifikatsiyasining biologik, ijtimoiy va shaxsiy omillari, shuningdek, oilaviy muhit va madaniy qadriyatlarning ta’siri yoritiladi. Tadqiqotda psixoanalitik, individual, gumanistik hamda bog’lanish nazariyasi asosida ota va ona rollarining rivojlanish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, ota-onalik rollarining zamonaviy transformatsiyasi va ularning bola shaxsining psixik rivojlanishiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: otalik roli, onalik roli, ota-onalik identifikatsiyasi, bog’lanish nazariyasi, ijtimoiylashuv, oilaviy tarbiya, gender rollari.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс формирования отцовской и материнской ролей с психологической точки зрения. Анализируются биологические, социальные и личностные факторы родительской идентификации, а также влияние семейной среды и культурных ценностей. Теоретической основой исследования послужили психоаналитическая концепция, индивидуальная психология, гуманистический подход, а также теория привязанности. В статье раскрываются механизмы развития родительских ролей и их влияние на психическое развитие личности ребёнка в условиях современного общества.

Ключевые слова: отцовская роль, материнская роль, родительская идентификация, теория привязанности, социализация, семейное воспитание, гендерные роли.

Abstract. This article analyzes the formation of paternal and maternal roles from a psychological perspective. It examines biological, social, and personal factors influencing parental identification, as well as the impact of family environment and cultural values. The theoretical framework is based on psychoanalytic theory, individual psychology, the humanistic approach, and attachment theory. The study highlights the mechanisms underlying the development of parental roles and their influence on a child’s psychological development in contemporary society.

Keywords: paternal role, maternal role, parental identification, attachment theory, socialization, family upbringing, gender roles.

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo’lib, unda shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Ota va ona rollari esa oilaviy tizimning markaziy komponenti hisoblanadi. Otalik va onalik rollarining shakllanishi biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Ushbu maqolada otalik va onalik rollarining psixologik asoslari, rivojlanish mexanizmlari va zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Otalik va onalik rollarining nazariy asoslarini tahlil qilsak, psixoanalitik yondashuv nazariyasiga ko’ra, ota va ona obrazlari bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim o’rin tutadi. Z.Freydning [5] psixoseksual rivojlanish bosqichlari nazariyasida ota-onaning roli bolaning “Men” va “Oliy men” strukturalarining shakllanishiga ta’sir ko’rsatadi. Ya’ni onaning roli bola hayotining dastlabki bosqichida (oral bosqich) ona asosiy ehtiyojlarni qondiruvchi shaxs sifatida xavfsizlik va ishonch manbai bo’ladi.

Ona bilan ilk emotsional aloqa bolaning keyingi affektiv rivojlanishiga asos yaratadi, onaning yetarli mehr ko’rsatmasligi yoki haddan tashqari himoyasi nevroitik holatlar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Otaning roliga esa fallik bosqichda (3–6 yosh) ota avtoritet va ijtimoiy me’yorlar timsoli sifatida namoyon bo’ladi, ota bolaning “Oliy men” (axloqiy nazorat tizimi) shakllanishida asosiy figura hisoblanadi. Ota bilan identifikatsiya jarayoni ayniqsa o’g’il bolalarda gender rolini o’zlashtirishda muhimdir. Freyd nazariyasiga ko’ra, sog’lom ota-onalik bola psixikasining muvozanatli rivojlanishini ta’minlaydi.

K.Yung [6] esa ota va ona obrazlarini arxetiplar sifatida talqin qilgan. Yung nazariyasiga ko’ra, “Ona arxetipi” mehr, himoya va g’amxo’rlik timsoli bo’lsa, “Ota arxetipi” tartib, qonun va ijtimoiy me’yorlarni ifodalaydi. Uning qarashlarida ota va ona arxetiplari K.Yung analitik psixologiyasida ota va ona obrazlari kollektiv ongsizlikdagi arxetiplar sifatida talqin qilinadi. Ona arxetipi: mehr, g’amxo’rlik, himoya va hayot manbai timsoli. Ijobiy shaklda — qo’llab-quvvatlovchi, mehribon.

Salbiy shaklda — haddan tashqari nazorat qiluvchi yoki sovuqqon. Ota arxetipi: tartib, qonun, ijtimoiy intizom ramzi, bolaning ijtimoiy makonga chiqishida yo’l ko’rsatuvchi. K.Yungga ko’ra, ota-onalik rollari nafaqat ijtimoiy, balki chuqur psixik-ramziy ildizlarga ega.

Individual psixologiya nazariyasi vakili A.Adler [1] ota-onalik rolini shaxsning ijtimoiy qiziqishi va mas’uliyat hissi bilan bog’laydi. Uning nazariyasida farzand tarbiyasi shaxsning to’liqlikka intilishi va ijtimoiy moslashuv jarayonining muhim ko’rsatkichi sifatida qaraladi. Alfred Adler nazariyasida ota-onalikni ijtimoiy qiziqish va mas’uliyat bilan bog’laydi. Uning asosiy g’oyalari ota-ona bolada hamkorlik, jamiyatga foydali bo’lish hissini shakllantirishi, haddan tashqari erkalatish yoki e’tiborsizlik — to’liqsizlik kompleksi rivojlanishiga olib keladi. Ota-ona o’z shaxsiy kamchiliklarini farzandga kompensatsiya qilish vositasi sifatida ishlatmasligi lozim. Adlarga ko’ra, demokratik oilaviy muhit sog’lom shaxs rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Gumanistik yondashuvga ko’ra K.Rodgers [8] va A.Maslou insonning o’zini o’zi ro’yobga chiqarish jarayonida ota-onalikni shaxsiy yetuklik bosqichi sifatida ko’rsatadi. Rodgers nazariyasida ota-onalikning markaziy tushunchasi — shartsiz ijobiy qabul qilish hisoblanib, ota-onaning vazifasi - bolani shartsiz qabul qilish, uning hissiyotlarini inkor qilmaslik, o’zini erkin ifoda qilishga imkon yaratishligini ta’kidlagan. Shartli muhabbat (masalan, “faqat yaxshi o’qisang seni yaxshi ko’raman”) shaxsda ichki ziddiyat va past o’zini baholashni keltirib chiqaradi.

A.Maslouning [7] ehtiyojlar ierarxiyasida ota-onalik yuqori darajadagi ijtimoiy va o’zini anglash ehtiyojlari bilan bog’liq. Maslou ehtiyojlar ierarxiyasida ota-onalik:

- Fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlarini qondirish;
- Muhabbat va tegishlilik hissini shakllantirish;
- O’zini hurmat qilishni rivojlantirish;
- O’zini o’zi ro’yobga chiqarishga yo’l ochish bosqichlarida muhim omildir.

Maslouga ko’ra, sog’lom ota-onalik farzandning yuqori darajadagi ehtiyojlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Otalik va onalik rollarining shakllanishi inson hali bu dunyoga kelmasdan boshlanishi ilmiy adabiyotlarda ko’rsatilgan. Otalik va onalik rollarining shakllanishi bosqichlarini quyidagicha ajratamiz:

• Prenatal davr - homiladorlik davridayoq ota-onalik identifikatsiyasi shakllana boshlaydi. Ayollarda onalik instinkti biologik jarayonlar bilan mustahkamlanadi. Erkaklarda esa otalik roli ko’proq ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik orqali shakllanadi.

• Tug’ruqdan keyingi davr - tug’ruqdan so’ng ona-bola o’rtasida emotsional bog’lanish yuzaga keladi. Jon Boulby [3] tomonidan ishlab chiqilgan bog’lanish nazariyasiga ko’ra, dastlabki

hissiy aloqa bolaning keyingi psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Otalik rolining shakllanishida esa ishtirok darajasi, emotsional yaqinlik va oilaviy qo’llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi. J.Boulby ota-onalikni emosional bog’lanish orqali tushuntiradi. Bunda asosiy tamoyillar: bola uchun asosiy parvarishlovchi bilan xavfsiz bog’lanish shakllanishi zarur, xavfsiz bog’lanish → ishonch, mustaqillik, ijtimoiy moslashuv, beqaror yoki uzilgan bog’lanish → xavotir, ishonchsizlik, agressivlik. Onaning roli ko’proq emotsional xavfsizlik yaratish bilan bog’liq bo’lsa, zamonaviy tadqiqotlarda otaning ham xavfsiz bog’lanish tizimidagi o’rni yuqori baholanadi.

• Ijtimoiylashuv bosqichi - ota va ona rollari jamiyatning gender stereotiplari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy talablariga mos ravishda rivojlanadi. Zamonaviy jamiyatda an’anaviy rollar transformatsiyaga uchrab, otalarning tarbiyadagi faol ishtiroki ortib bormoqda.

Otalik va onalik rollari shakllanishiga ta’sir etuvchi bir qator omillar ta’sir qiladi. Ular quyidagilar:

- Individual-psixologik omillar – temperament, o’z-o’zini baholash, emotsional barqarorlik;
- Oilaviy tajriba – o’z ota-onasining tarbiya uslubi;
- Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit – moddiy barqarorlik, mehnat sharoiti;
- Madaniy omillar – milliy qadriyatlar va gender rollari;
- U.Bronfenbrennerning [4] ekologik tizimlar nazariyasiga ko’ra, ota-onalik mikrotizim (oila), mezotizim va makrotizim ta’sirida shakllanadi. U.Bronfenbrenner ota-onalikni ko’p darajali tizimda ko’radi: mikrotizim — oila, mezotizim — oila va maktab o’rtasidagi munosabat, ekzotizim — ota-onaning ish sharoiti, makrotizim — madaniyat, urf-odat, gender stereotiplari.

Demak, otalik va onalik rollari individual emas, balki ijtimoiy kontekst mahsulidir.

D.Baumrind ota-onalik uslublarida u ota-onalikni uch asosiy uslubga ajratadi:

avtoritar — qat’iy nazorat, past emotsional qo’llab-quvvatlash, demokratik (avtoritativ) — talabchanlik va iliqlik muvozanati, permissiv (liberal) — nazorat past, erkinlik yuqori. Tadqiqotlar demokratik uslub eng samarali ekanligini ko’rsatadi. D.Baumrindning [2] ota-onalik uslublari ya’ni avtoritar, demokratik, liberal nazariyasi ota va ona rollarining samaradorligini tushuntirishda keng qo’llaniladi.

Zamonaviy tadqiqotlar tahlilini qilganimizda so’nggi tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, otaning faol ishtiroki bolaning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Onalik esa bolaning xavfsizlik hissi va bazaviy ishonch shakllanishida asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda otalik va onalik rollarining shakllanishi murakkab va ko’p omilli jarayon bo’lib, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg’unligida rivojlanadi. Sog’lom ota-onalik shaxsning yetuklik darajasi, emotsional tayyorgarligi va ijtimoiy mas’uliyat hissi bilan chambarchas bog’liq. Zamonaviy sharoitda ota-onalik rollari an’anaviy chegaralardan chiqib, teng sheriklik asosida rivojlanayotganligi barchamizga ma’lum.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alfred Adler. (2011). Understanding Human Nature. Eastford, CT: Martino Fine Books. – 254 p.
2. Diana Baumrind. (1991). The influence of parenting style on adolescent competence and substance use. In: Journal of Early Adolescence. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications. – Vol. 11(1). – pp. 56–95.

3. John Bowlby. (2012). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment (2nd ed.). New York: Basic Books. – 428 p.
4. Urie Bronfenbrenner. (2005). Making Human Beings Human: Bioecological Perspectives on Human Development. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications. – 336 p.
5. Sigmund Freud. (2010). The Ego and the Id (Reprint ed.). New York: W. W. Norton & Company. – 192 p.
6. Carl Gustav Jung. (1981). The Archetypes and the Collective Unconscious (2nd ed.). Princeton, NJ: Princeton University Press. – 470 p.
7. Abraham Maslow. (2014). Motivation and Personality (3rd ed.). New York: Harper & Row Publishers. – 336 p.
8. Carl Rogers. (2004). On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. London: Constable & Robinson Ltd. – 420 p.